

NUKUS SHAHRI ATROFIDAGI MAYDA SUT EMIZUVCHILARNING BIOEKOLOGIYASI**E.K.Joldasbaeva – student****A.J.Turekeeva – pedagogika fanlari bo'yicha filosofiya doktori, dotsent**
*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti***БИОЭКОЛОГИЯ МЕЛКИХ МЛЕКОПИТАЮЩИХ В ОКРЕСТНОСТЯХ ГОРОДА НУКУСА****Е.К.Жолдасбаева – студентка****А.Ж.Турекеева – доктор философских наук по педагогическим наукам, доцент**
*Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза***BIOECOLOGY OF SMALL MAMMALS IN THE VICINITY OF THE CITY OF NUKUS****E.K.Zholdasbaeva – student****A.J.Turekeeva – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**
Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Tayanch soʻzlar: sutemizuvchilarning bioekologiyasi, tarqalishi, quloqli tipratikan, sariq yumronqoziq, kichik qoʻshoyoq, jun oyoqli qoʻshoyoq, kulrang olasichqon, oddiy koʻrsichqon, qizil dumli qum sichqon, uy sichqoni.

Rezyume. Maqolada Nukus shahri atrofida mayda sutemizuvchilarning yashash tarzi, tarqalish hududi, koʻpayishi, oziqlanishi, tadqiqot qilingan dinamik oʻzgarishlar haqida maʼlumotlar bayon etilgan.

Ключевые слова: биоэкология млекопитающих, распространение, ушастый еж, желтый суслик, малый тушканчик, мохноногий тушканчик, серая полевка, обыкновенная слепушонка, краснохвостая песчанка, домовая мышь.

Резюме. В данной статье представлена информация об образе жизни, ареале распространения, размножении, питании и исследованных динамических изменениях млекопитающих в окрестностях города Нукус.

Key words: bioecology of mammals, distribution, long-eared hedgehog, yellow souslik, lesser jerboa, hairy-footed jerboa, grey hamster, common mole rat, red-tailed sand rat, house mouse.

Summary. This article presents information on the lifestyle, distribution range, reproduction, feeding habits, and observed dynamic changes of mammals in the vicinity of Nukus city.

Kirish. Respublikamiz hududlari ichida Nukus shahri atrofi ham bir qator jonivorlarning yashashi, koʻpayishi va qishlashi uchun juda qulay makon hisoblanadi. Umurtqali hayvonlarning tarqalishi, ayniqsa fel-atvor xususiyatlariga oid koʻplab manbalarni, fotosuratlar va videotasmalarni internet saytlarida uchratish mumkin. Jumladan, yirtqich qushlar, kaltakesaklar, yirtqich sutemizuvchilarning ov jarayoni, bu holatda ularning uchish, yugurish tezligi haqida qiziqarli maʼlumotlar keltirilgan. Bular ichida ayrim turlari ov, estetik, ilmiy va iqtisodiy ahamiyatga ega boʻlganligi sababli ularni oʻrganish birmuncha keng boʻlishiga qaramay, hozirgi kunda bu boradagi tadqiqotlar davom ettirilmoqda.

Respublikamizda umurtqali hayvonlarni oʻrganish borasida birmuncha keng ishlar olib borilgan. Biroq Nukus shahri hududida mazkur yoʻnalishda rejali tadqiqotlar yetarlicha yoʻlga qoʻyilmagan.

Metodologiya. Sutemizuvchilarni oʻrganish boʻyicha tadqiqotlar Nukus shahri atrofining aholi yashaydigan joylaridan va chetki qismi yoki choʻl hududlarida yoz oylarida olib borildi. Tadqiqotlarimiz davomida sutemizuvchilardan 2 ta turkumga mansub 8 tur sutemizuvchilar roʻyxatga olindi.

Muhokama. Quyida bu turlarning bioekologiyasi bilan tanishamiz:

Quloqdor tipratikan (*Erinaceus auritus* G., 1770) Koʻp sonda mustahkamlangan va yarim mustahkamlangan shuvoq, efemer oʻsimlikli va boshqa turli biotoplarda uchraydi. Tana ogʻirligi 250-400 g. Ozuqasi hasharotlar, qushlar tuxumi, oʻlaksalar, mayda kaltakesaklar, ilonlar, oʻsimliklar mevasi va urugʻlaridan iborat. Yiliga bir marta bolalaydi. Har yili 4-5 tadan bola tugʻadi. Homiladorlik davri 35-42 kundan iborat. Bolalari yalangʻoch tugʻiladi. Bu vaqtda tikanlari kam va juda yumshoq boʻladi. Besh soatdan keyin esa ignalari 4 marta uzayadi. Bir haftadan keyin esa koʻzi ochiladi. Ikkinchi haftaga qaraganda tanasi toʻliq ignalar bilan qoplanadi. Uch haftadan soʻng bolalari voyaga yetganlari kabi ovqatlanadi. Tipratikanlar uzunligi 45 sm keladigan bir tarmoqli in qazishadi. Boshqa hayvonlar inlaridan foydalanishlari mumkin. Yakka holda hayot kechiradi. Koʻpayish davridan boshqa paytlari uyquga ketadi. Oʻz inida dumalangan holda uxlaydi. Tipratikanlar koʻpincha tungi paytlari faol harakatda boʻlib, ovqat izlab 9 km masofani bosib oʻtadi. Baʼzan yozda ham, qishda ham uyquga ketadi.

Qoraqalpogʻistonda Ustyurt, Qizilqum, Amudaryo deltasida va ekin maydonlarida uchraydi [3:286].

Sariq yumronqoziq (*Citellus fulvus* L., 1823) Bizning faunamizdagi eng yirik yumronqoziq. Tanasining

uzunligi 232-380 mm, dumi 64-120 mm. Cho'l va yarim cho'l hayvoni. Cho'l o'simliklarining poyasi, bargi, tuxumi, piyozchalari va lolalar bilan oziqlanadi. Ovqatining asosini 38 xil o'simlik tashkil etadi. Ularga yulg'un, yantoq, rang, saksovul, sho'ra, jo'xori, beda, sabzi va boshqa o'simliklar ham kiradi. Chuqurligi 3 m, uzunligi 7-8 m oddiy tuzilishga ega in qaziydi. Doimiy inidan tashqari vaqtinchalik uncha chuqur bo'lmagan himoya ini ham bo'ladi. Uyasi quruq shox va poya bilan to'shalgan. Juftlashishi qishki uyqudan uyg'ongandan keyin, fevralning oxiri martning boshida bo'ladi. Homiladorlik davri bir oyga yaqin. Bir mavsum davomida urg'ochilari bir marta 4-13 tadan bola tug'adi. Bolalari ko'zi yumuq, yalang'och, uzunligi 60 mm, vazni 15 g miqdorida nimjon tug'iladi.

Ular inidan aprelning oxiri mayning boshlarida chiqadi. Mayning oxiri-iyunda voyagaetgan yumron-qoziqlar, undan keyingi yoshlari qishki uyquga ketadi. Sariq yumronqoziq vabo kasalligini qo'zg'atuvchi mikroblarni saqlovchi vazifasini ham bajaradi.

Qoraqalpog'istonda Qizilqumning sozli-qumli joylarida, Ustyurt tekisligida va Amudaryo deltasida uchraydi.

Kichik qo'shoyoq (*Allactaga elater* L., 1825) Tanasining uzunligi 13 sm, dumi uzun 20 sm gacha bo'ladi. U o'simlik tuganaklari, piyozchalari, vegetativ organlari va tuxumlari, kamdan-kam hasharotlar bilan oziqlanadi.

Barchasi bo'lib 35 xil o'simlik turi bilan oziqlanadi. Tungi payt faol holatda bo'lib, kunduz kunlari inida dam oladi. Juftlashishi uyqudan uyg'ongandan keyin boshlanadi va aprel oyining boshigacha davom etadi. 1-7 bola tug'adi. To'ng'ich bolalari inidan om-maviy tarzda chiqishi va tarqalishi iyun-iyul oylariga to'g'ri keladi. Qishda uyquga ketadi. Qoraqalpog'istonda Ustyurtda, Qizilqumda va Amudaryo deltasida uchraydi [1:18].

Jun oyoqli qo'shoyoq (*Dipus sagitta* P., 1773) O'rtacha kattalikdagi qo'shoyoq. Tanasining uzunligi 105-140 mm, orqa tirsagi 60-65 mm. Cho'l hayvoni bo'lib, mustahkamlanmagan va past mustahkamlangan yirik o'rkachli qumlarda yashaydi. Ovqatini cho'l o'simliklarining tuganagi, piyozchasi, guli, urug'i va butalarning shoxchasi, mevasi tashkil etadi. Hasharotlardan chigirtka, qo'ng'izlarni yeydi. Qoraqalpog'istonda 41 tur o'simlik bilan oziqlanadi. Doimiy ini murakkab, chuqurligi 2-3 m bo'lib, og'zini tuproq tiqini bilan berkitib qo'yadi. Vaqtinchalik ini biroz sayoz bo'lib, xavf tug'ilganda yashirinish, himoyalaniish vazifasini bajaradi. Shomdan boshlab tuni bilan harakat qiladi. Inidan qorong'i tushishi bilan chiqib, tun bo'yi kezib yuradi.

Juftlashishi martda boshlanib, yozning birinchi yarmigacha davom etadi. Homiladorligi 25-30 kun. 4-6 ta, kamdan-kam 1-8 tagacha bola tug'adi. Yozda bir, kam hollarda ikki marta tug'adi. Yosh bolalari iyunning o'rtalarida paydo bo'ladi. Ikkinchi sikl ko'payishi, qishlab chiqqanlari orasida iyul, avgustda o'tadi. Vabo epizootiyasida ishtirok etadi. Qoraqalpog'istonda Qizilqumda va Amudaryo deltasida uchraydi [3:260].

Kulrang olaqo'rjin (*Cricetulus migratorius* P., 1773) Tanasining uzunligi 96-128 mm. Dumi 20-35 mm. To'qayzorlarda, cho'l, yarim cho'l, yarim mustahkamlangan qumlarda, qishloq xo'jalik ekinlari maydonlarida (bog'larda, ekin dalalarida) yashaydi. Yovvoyi o'simliklardan shuvoq, astragal o'simliklarining urug'i, madaniy o'simliklardan olcha danagi, kungaboqar, qovoq, tarvuzlarning urug'i bilan oziqlanadi. Hayvonlardan qo'ng'iz, chigirtka, chumoli, kapalak lichinkalariniyeydi. Harakati shom tushishi bilan boshlanib, tuni bilan davom etadi. Ini oddiy tuzilishda, ikkita kirish teshigi, bitta uya kamerasi va bo'shliqlardan iborat. Mart-aprel oylarida ko'payib, mavsumda 2-3 marta bolalaydi. Har tug'ganda 3-10 (o'rtacha 7-8) ta bola tug'adi. Homiladorlik davri 19 kun. Birinchi tug'ganlari shu yili ko'payishda qatnashadi. Qoraqalpog'istonda Ustyurtda, Qizilqumda, Amudaryo deltasida va ekin maydonlarida uchraydi.

Oddiy ko'rsichqon (*Ellobius talpinus* P.) Kichik hayvon. Tanasining uzunligi 100-120 mm. Doimo va butunlay yer ostida yashaydi. Yer ustiga qisqa vaqtga va tunda chiqadi. Inlari juda uzun va murakkab tuzilishga ega. Ular 100 m keladigan katta magistral yo'ldan iborat va 10-40 sm chuqurlikda joylashgan. Undan 20-50 m yon tomonda in yo'llari bo'ladi. Urg'ochilari yil davomida 3-4 marta tug'adi. Har tug'ganda 2-4 tadan bola tug'adi.

Bog'larga, bedaga zarar keltiradi va tuproqni organik moddalar bilan boyitish orqali foyda keltiradi. Qoraqalpog'istonda Ustyurtda, Qizilqumda va Amudaryo deltasida ekin maydonlarida uchraydi [2:106].

Qizil dumli qumsichqon (*Meriones erythrourus* G., 1823) Tanasining uzunligi 135-170 mm. Cho'l, yarim cho'l hayvoni. Asosiy ozuqasi o'simliklarning urug'i. Bahorda yangi unib chiqqan yosh o'simliklar novdasi, ildizi va piyozchalari bilan oziqlanadi. Qishga tayyorlagan ozuqasi o'simliklarning mevasi, urug'i, madaniy o'simliklarning donidan iborat bo'ladi. Ustyurtning gipsli dashtida bu tur 55 tur o'simlik bilan oziqlanadi.

Kunduzi va tunda faol. Yozda kechasi va kunduzi, qishda kunduzi faol bo'ladi. Ini uncha ko'p bo'lmagan

10-15 uya kamerasidan, zaxira ozuqa to'plash va chiqarib tashlash bo'limlaridan iborat. Yil davomida ko'payadi, ko'proq mart-may oylarida. Homiladorligi 24-26 kun, mavsumda bir necha marta nasl qoldiradi. Har tug'ganda 6 tadan bola tug'adi. Yoshlari 4-5 oyda jinsiyetiladi. Ekinlarni yeb zarar keltiradi. Ayniqsa, g'o'zani ozuqa maqsadida iniga yig'adi. Vabo kasalligini tarqatishda katta o'rin tutadi. Qoraqalpog'istonda Ustyurtda, Qizilqumning qattiq, toshloqlarida, o'rkachli qum barxanlari chetlarida, Amudaryo deltasida, kam hollarda ekin maydonlarida uchraydi. Orol dengizida Vozrojdeniye orolida uchraydi [1:15].

Uy sichqoni (*Mus musculus* L., 1758) Juda kichik, keng tarqalgan dominant tur. Janubiy Orol hududida sinantropik va tabiiy jihatdan yil davomida barcha fasllarda harakatlanuvchi tur hisoblanadi. Ekin maydonlarida, daryo bo'ylarida, qalin to'qaylarda, yulg'unzorlarda, qamishzorlarda, saksovulzorlarda, tik jar va past jarliklarda, aholi turar joylarida ko'plab uchraydi. Uy sichqoni kichik uzun dumli hayvon. Tana uzunligi 110 mm gaetadi. Ularning ozuqasi ham har xil. Tabiatda urug' va don bilan oziqlansa, uylarda va uy atrofidagi tomorqalarda barcha ozuqa turlari bilan oziqlanadi. Ini juda oddiy, 2-3 ta kirish yo'lagi bor, chuqurligi 25-30 sm. Uy sichqoni juda ko'payuvchan va ko'p nasl beradi. Harakatchanligi uchun qulay sharoitiga qarab uylarda yil davomida ko'payadi. Homiladorligi 20 kun. Har tuqqanda 13-14 tagacha bola tug'adi. Bu tur don mahsulotlariga juda katta zararetkazadi. Qoraqalpog'istonda Qizilqumda, Ustyurtda va Amudaryo deltasidagi ekin maydonlarida, aholi turar joylarida uchraydi [4:230].

Tadqiqot natijasi. Tadqiqotlar davomida sutemizuvchilar sinfiga mansub hasharotxo'rlar turkumiga kiruvchi turlar 1, kemiruvchilar turkumiga kiruvchi turlar 7, yirtqich sutemizuvchilar turkumiga kiruvchi turlar esa 1 turni tashkil etdi (1-jadval). Ro'yxatga olingan barcha turlarning bioekologiyasi adabiy ma'lumotlarga asoslangan holda ochib berildi.

Adabiyotlar

1. Asenov G.A., Turekeeva A.J. Qoraqalpog'istonda tarqalgan kemiruvchilarning aniqlagich kaliti. – Nukus: NDPI nashriyoti, 2015.
2. Asenov G.A., Jumanov M.A., Bekbergenova Z.O., Arepbaev I.M. Qaraqalpaqstanni omirtqali haywanatlari faunasi. – Nókis: «Qaraqalpaqstan», 2013.
3. Асенов Г.А. Значение большой песчанки (*Rhombomys opimus* Licht.) в природной очаговости чумы на территории Республики Каракалпакстан. Автореф. дисс. докт. биол. наук. – Ташкент: 1999. – С. 51.
4. Jumanov M.A., Asenov G.A., Bekbergenova Z.O., Qoshanov D.E. Qaraqalpaqstanni haywanat dunyasi. – Nókis: «Qaraqalpaqstan», 2020.
5. Лобачев В.С. Пространственная структура и организация популяционных группировок *Rhombomys opimus* Licht. (Rodentia). // Первый Межд. териологический конгресс. – Москва: 1974. Т. I. – С. 370-371.

1-jadval. Nukus shahri atrofidagi sut emizuvchilar

№	Lotincha nomi	O'zbekcha nomi	Soni
1	<i>Erinaceus auritus</i> G., 1770	Quloqdor tipratikan	6
2	<i>Citellus fulvus</i> L., 1823	Sariq yumronqoziq	2
3	<i>Allactaga elater</i> L., 1825	Kichik qo'shoyoq	3
4	<i>Dipus sagitta</i> P., 1773	Jun oyoqli qo'shoyoq	1
5	<i>Cricetulus migratorius</i> P., 1773	Kulrang olaxurjun	2
6	<i>Ellobius talpinus</i> P.	Oddiy ko'rsichqon	2
7	<i>Meriones erythourus</i> G., 1823	Qizil dumli qumsichqon	7
8	<i>Mus musculus</i> L., 1758	Uy sichqoni	21
Jami:			44

Xulosa. Tadqiqot natijalariga ko'ra 2024-yil may-iyul oylarida Nukus shahri atrofidan sut emizuvchilarning 8 turga mansub jami 44 osobi kuzatildi. Ulardan, Quloqdor tipratikanni (6 osob) Nukus shah-ri-ning aholi yashaydigan uy atroflaridan iyun oyida kechki soot 20⁰⁰ dan o'tgan paytlari uchratdik. Sariq yumronqoziq (2 osob), kichik qo'shoyoq (3 osob), jun oyoqli qo'shoyoq (1 osob), kulrang olaxurjun (2 osob), oddiy ko'rsichqon (2 osob), qizil dumli qumsichqon (7 osob), uy sichqoni (21) turlarini esa aholi yashaydigan joylardan uzoqiroqda cho'l hududlaridan uchratdik.

Xulosa qilib aytganda, biologiya darsida umurtqali hayvonlar vakillarini o'qitish orqali ta'lim-tarbiya berish natijasida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarni o'qitish orqali o'zini qamrab olgan ona tabiatining qadr-qimmatini tushunishga, undan tejamli foydalanishni to'g'ri uyg'unlashtirishga, biologik xilma-xillikni saqlash muammosini qonun doirasida hal etishga imkon beradi.